



YANGI O'ZBEKISTONDA TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR – KELAJAKKA TAYANCH

Saidova Inoyatxon Muhamedraximovna

UNIVERSITY OF MANAGEMENT AND

FUTURE TECHNOLOGIES “Gumanitar fanlar”

kafedrası katta o'qituvchisi

Telefon: +998 94 661-65-05

Annotatsiya: Mamlakatimizda so‘ngi yillarda ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ta‘lim-tarbiya darajasini rivojlantirish bilan birga, farzandlarimizning sifatli va mazmunli bilim olishlariga sharoit yaratmoqda. Keyingi davrda qabul qilingan qator hujjatlarning ijrosi bois ta‘lim sifati va samaradorligiga erishish borasida ijobiy natijalar qo‘lga kiritilayotganligi yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim”, taraqqiyot strategiyasi, Ta‘lim sohasi, yuksak ma‘naviyat, iqtisodiyot tarmoqlari.

Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma‘naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta‘lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratib kelmoqda. Ta‘lim sohasiga qaratilayotgan bunday e‘tibor samarasi o‘laroq, davlat boshqaruvini tubdan yangilash, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash borasida keng ko‘lamli yangilanish va tashabbuslar boshlandi. Ularni hayotga to‘liq joriy etish ijtimoiy taraqqiyot mas‘uliyatini o‘z zimmasiga oladigan vatanparvar, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga



ega bo'lgan iqtidorli va istiqbolli, malakali va raqobatbardosh professional kadrlarga juda katta ehtiyojni vujudga keltirdi. Bu ehtiyoj, birinchi navbatda, jamiyatning ta'lim sohasida tub islohotlar boshlanishiga turtki bo'ldi. Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq.

2023-yilga “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim” yili deb nom berilishida ham ta'lim sifatiga berilayotgan e'tibor nechog'lik katta ekanligidan dalolatdir. Haqiqatdan ham, mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar jadal davom ettirilmoqda va zamonaviy bosqichga ko'tarilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi Farmonni imzolanishi mamalakatimizning yanada rivojlanishi yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarning uzviy davomi bo'ldi. Amalga oshirilayotgan yangilanishlar davrida ta'lim tizimiga ham alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, Farmonda ham ta'lim sifatini oshirish, sohani ilg'or xorijiy tajriba asosida isloh qilish maqsadida 2023-yil 1-sentyabrdan boshlab har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiy o'rta ta'lim muassasasida o'quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb- hunarga o'rgatish amaliyoti bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilishi, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1-4-sinflarida o'quvchilarni ilg'or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan darsliklar bo'yicha o'qitish, 5-9-sinflarda o'quvchilarga umumta'lim fanlaridan tayanch bilimlar berish, 10-11-sinf o'quvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos bo'lgan ixtisoslashgan dasturlar asosida bilim berish amaliyotini joriy qilish, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab respublikaning barcha viloyatlari va Toshkent shahrida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ovqat bilan ta'minlash, 2023-yil 1-apreldan boshlab maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish, professional ta'lim tizimini rivojlantirish, mehnat bozori va ish beruvchilarning talablariga mos bo'lgan malakali o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash, 2023-2024-o'quv yilidan boshlab davlat grantlari kollej va texnikumlarning dual ta'lim



shakli bo'yicha ham ajratish, 2023-yil 1-sentyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida malakali xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda Yevropa kasbiy ta'lim va kasbga o'qitish sifatini ta'minlash tizimi talablariga to'liq javob beradigan 1 tadan namunaviy professional ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yish, 2023-yil 1-apreldan boshlab professional ta'lim muassasasi pedagoglarining bazaviy tarif stavkalari mos ravishda umumiy o'rta ta'lim muassasasi pedagoglarining bazaviy tarif stavkalariga, professional ta'lim muassasasi birinchi va ikkinchi malaka toifasiga ega bo'lgan, malaka toifasiga ega bo'lmagan oliy ma'lumotli hamda oliy ma'lumotga ega bo'lmagan ishlab chiqarish ta'limi ustalarining bazaviy tarif stavkalari tegishincha umumiy o'rta ta'lim muassasasi birinchi va ikkinchi malaka toifali o'qituvchisi, oliy ma'lumotli o'qituvchisi hamda o'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchisining bazaviy tarif stavkalariga tenglashtirish kabi masalalar alohida o'rin egallagan.

Xulosa qilib aytganda ilm – insonning yagona najot yo'li. Albatta bir qarashda bu balandparvoz gapga o'xshaydi. Lekin, haqiqatdan ham e'tibor bilan qaraydigan bo'lsak barcha muammolarning yechimi albatta ilm sohiblariga bog'liq. Eng oddiy jabhalardan tortib olamshumul ishlarning ortida ham olim va ilm ahillarining buyuk hizmatlari yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-son Farmoni
3. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/insonga_etibor_va_sifatli_talim_yilida_nim_alar_belgilangan